

## **“Farg‘ona viloyatining 2024- yilning yanvar-iyun oylari holatiga demografik ko‘rsatkichlari” mavzusida o‘tkazilgan matbuot anjumani Axboroti**

Joriy yilning 27-avgust kuni Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi binosida viloyatda faoliyat yuritayotgan ommaviy axborot vositalari xodimlari va jurnalistlar ishtirokida «Farg‘ona viloyatining 2024-yil yanvar-iyun oylari holatiga demografik ko‘rsatkichlari» mavzusida matbuot anjumani bo‘lib o‘tdi. Matbuot anjumanida Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari Sh. Zokirov hamda “Demografiya, mehnat va gender statistikasi” bo‘limi boshlig‘i H.Mutalipovlar ishtirok etdi.

Anjumanda joriy yilning 6 oyida Farg‘ona viloyatida 4 mln 098,7 ming mln 330,7 mingini shahar aholisi, 1 mln 768,0 mingini esa qishloq aholisi tashkil etganligi, viloyatimiz aholisining 56,4 foizi mehnatga layoqatli yoshdagilardan iborat bo‘lsa, salkam uchdan bir qismi ushbu yoshdan kichik, 12,2 foizi esa mehnatga layoqat yoshidan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelayotganligi, viloyatda har bir kvadrat kilometrda to‘g‘ri keladigan aholi soni o‘rtacha 606,4 kishi bo‘lib, aholi zichligi bir kvadrat kilometrda 296,8 kishiga to‘g‘ri kelayotganligi haqida atroflicha bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti 23,2 promilleni tashkil etganligi, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida 8,5 mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga o‘lim koeffitsiyenti 4,2 o‘zgarish bo‘lmaganligi kuzatilganligi, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan o‘lim holatining 62,2 %i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,2 %i – o‘simtalardan, 5,4 %i – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, 6,2 %i – baxtsiz hodisa, kasalliklaridan, 0,8 %i – yuqumli va parazitlar kasalliklaridan, 12,2 %i boshqa doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar soni 5 181 kishini tashkil etgan bo‘lsa, doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlar soni 6 497 kishini tashkil etib, migratsiya saldosi minus 1 316 kishini tashkil etganligi haqida ham to‘xtalib o‘tilgan.